

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**II RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

YANVAR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil).– 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Mas'ul muharrir:
Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Abdulbositova Muborak

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR 9-11

Anvarbekova Ruxsora

DIFFERENSIAL TENGLAMALARNI YECHISHDA PYTHON KUTUBXONALARINING
IMKONIYATLARI 12-14

KIMYO FANLARI

Kosimova Zuxra

OKSIDLANISH STRESSI VA UNING TROMBOSITLAR FAOLIYATIGA TA'SIRI 15-18

Xoshimov Nozimjon, Kosimova Zuxra

ORGANIZMDAGI OKSIDLANISH STRESS HOLATIDA POLIFENOLLARNING ROLI 19-22

BIOLOGIYA FANLARI

Shertoyeva Risliqoy, Mavlanova Sadbarxon

O'ZBEKISTONNING SHARQIY MINTAQASIDA (NAMANGAN) YASHOVCHI 7–16 YOSHLI
BOLALAR VA O'SMIRLARDA KO'RISH CHAQRILGAN POTENSIALLARINING YOSHGA XOS
NORMATIV KO'RSATKICHLARI 23-25

TEXNIKA FANLARI

Qurbonov Mahmudjon, Umarov Abdusalam, Kuchkarov Khoshimjon, Khursanova Odina

STRUCTURAL FEATURES OF POLYAMIDE 6 WITH INCLUSIONS OF IRON OXIDE
NANOPARTICLES 26-38

Valixonov Ilyosbek

KOMPYUTERLI KO'RISH TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA IMO-ISHORA TILINI MATNGA
O'GIRISH TIZIMLARINI TADQIQ ETISH 39-42

Qurbonov Mahmudjon, Kuchkarov Khoshimjon, Umarov Abdusalam

WITH STRUCTURE FORMATION AND THE STRUCTURAL COMPOSITION OF THE
COMPOSITION BASED ON POLYAMIDE WITH IRON OXIDE NANOPARTICLES 43-53

TARIX FANLARI

Nurullayeva Nabira

ISLOHATLAR, YARATILGAN IMKONIYATLAR – XOTIN-QIZLAR UCHUN IMKONIYAT
ESHIGI 54-56

Yuldashev Ulugbek

O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM TIZIMI RIVOJLANISHI TARIXI 57-60

To'ychiyeva Dilnoza, Ergasheva Go'zal

ZOMIN TUMANIDAGI TURIZM TARMOQLARINING RIVOJI XUSUSIDA 61-64

Мирзамидинова Шахноза

ОСВЕЩЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ, СВЯЗАННЫХ С ПРОБЛЕМАМИ ЯЗЫКА И
ОРФОГРАФИИ, В ПУБЛИЦИСТИКЕ АШУРАЛИ ЗОХИРИ 65-67

Raxmatov Xayrulla

BUXORO VOHASI MA'MURIY-HUDUDIIY BIRLIKLARI VA AHOLISI (XIX ASRNING SO'NGGI
CHORAGI – XX ASR BOSHLARIDA) 68-71

IQTISODIYOT FANLAR

Yusupov Nurillo

BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARIDA BOSHQARUV FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI 72-76

Mehmonova Shodiyonaxon

SHHT DOIRASIDA IQTISODIY HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI VA UNING O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTIGA TA'SIRI 77-80

Ibadullaeva Shokhida

EXPERIENCES OF DEVELOPED COUNTRIES IN APPLYING MARKETING STRATEGIES IN
EXPORTING ENTERPRISES 81-87

Yusupov Nurillo

KORXONALARNING BOSHQARUV TIZIMI SAMARADORLIGINI BAHOLASH
USULLARI 88-92

FALSAFA FANLARI

Rahmatullayev Mardonbek

KIBER MAKONDA SHAXSIY VA JAMOAVIY ERKINLIKNI MUVOZANATLASH
STRATEGIYALARI 93-96

Nabiyev Sherzodjon

DIGITAL DUNYODA YOSHLAR SHAXSIYATINI SHAKLLANTIRISHDAGI
MUAMMOLAR 97-102

Saydaliyev Ilyosbek

MURAKKAB MUHITDAN KELGAN YOSHLARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI
SHAKLLANTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATINING IJTIMOY-FALSAFIY RO'LI 103-106

Meliboev Azizjon

YANGI O'ZBEKISTONDA SIFATLI TA'LIM ORQALI KAMBAG'ALLIKKA QARSHI KURASH VA
XALQ FAROVONLIGINI TA'MINLASH 107-111

FILOLOGIYA FANLARI

Aminov Farrux

INGLIZ VA O'ZBEK OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA AXBOROT UZATISHNING
MULTIMODAL STRATEGIYALARI VA KOGNITIV MEKANIZMLARI 112-119

Jo'rayeva Madinaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR: O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI VA SUN'IY INTELLEKT SOHASIDAGI INNOVATSIYALAR
MISOLIDA 120-124

Isakova Barchinoy

JEK LONDONNING "MARTIN IDEN" HAMDA O'TKIR HOSHI MOVNING "NUR BORKI, SOYA
BOR" ROMANLARIDAGI POETIK VOSITALAR TAHLILI 125-128

Азизова Насиба

ИССЛЕДОВАНИЕ КОНЦЕПТА ЯЗЫКОВОЙ ЛИЧНОСТИ В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ
КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ А. С. ПУШКИНА, Н. В. ГОГОЛЯ И Л. Н.
ТОЛСТОГО АЛИШЕРА НАВОИ, ЗАХИРИДДИНА БАБУРА) 129-134

Toshboyeva Odinaxon

INGLIZ VA O'ZBEK INTERNET GAZETA SARLAVHALARIDA LEKSIK-SEMANTIK VA SINTAKTIK
VOSITALAR ASOSIDA PRAGMATIK PRESUPPOZITSIYANING IFODALANISHI 135-138

<i>Umirzakova Dilnoza</i> ANIMATSION FILMLAR TARJIMASIDA LINGVOPRAGMATIK OMILLAR: QIYOSIY TADQIQOT	139-144
<i>Jabborova Aziza</i> SIYOSIY KOMMUNIKATSIYADA EVFEMIZMLARNING AUDITORIYAGA TA'SIRI	145-149
<i>Boykhanov Shukhratjon</i> UNDERSTANDING ENGLISH PROVERBS: LEXICAL, STYLISTIC, PSYCHOLOGICAL, AND PRAGMATIC DIFFICULTIES	150-155
<i>Narzulloyeva Maftuna</i> A COMPARATIVE ANALYSIS OF OFFICIAL LETTERS IN ENGLISH AND UZBEK PROSE	156-158
<i>Abdullayeva Dildora</i> QUTADG'U BILIG FRAZELOGIZMLARINING SEMANTIK-PRAGMATIK TABIATI VA LISONIY TADQIQI	159-162
<i>Umrzaqov Islomjon</i> "JANUB RENESSANSI" DAVRI ASARLARIDA BADIY MAKON VA ZAMON POETIKASI	163-165
<i>Fayzullayeva Nozima</i> YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR	166-168
<i>Ergashev Nodirbek</i> SOCIAL INJUSTICE AND MORAL VALUES IN "OLIVER TWIST" BY CHARLES DICKENS	169-171
<i>Ubaydullaeva Dilfuza</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA BO'LAJAK MUTAXASSISLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION MODELLARI (IJTIMOIY-GUMANITAR YO'NALISHDA)	172-178
GEOGRAFIYA FANLARI	
<i>Umarov Javohir</i> FARG'ONA VILOYATI YER RESURSLARIDAN QISHLOQ XO'JALIGIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	179-185
YURIDIK FANLAR	
<i>Hakimboyeva Dildora</i> ELEKTRON HUKUMAT VA MA'MURIY HUQUQ MUNOSABATLARINING TRANSFORMATSIYASI	186-188
<i>Самигжоновна Зилола</i> МЕЖДУНАРОДНЫЕ НОРМЫ, РЕГУЛИРУЮЩИЕ ЗАЩИТУ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В СЕТИ ИНТЕРНЕТ	189-195
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Xomidjonov Abrorjon</i> OLIY VA PROFESSIONAL TA'LIMDA PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISH TAJRIBASI	196-202

<i>Sodiqova Gulnora</i> KASBIY TA'LIM TIZIMIDA ISH BERUVCHILAR BILAN SAMARALI KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARI	203-208
<i>Soliyeva Gavharoy</i> "HISOBLASH USULLARI" FANI BO'YICHA O'QUV KONTENTI	209-212
<i>Isaqov Abduvohid</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA METODIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH: ASOSIY TUSHUNCHALAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	213-217
<i>Юсупова Наргиза, Юсупов Дильшод</i> ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИХ ДЕЙСТВИЙ ЮНЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ: АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ПЕРСПЕКТИВ РАЗВИТИЯ	218-221
<i>Ganiyev Elyorbek</i> TALABALARDA HUQUQIY TAFAKKUR VA TAHLILY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY METODIKASI	222-226
<i>Xabibullayev Alimardon</i> TALABALAR MOBILIGI VA QO'SHMA TA'LIM ASOSIDA INNOVATSION VA BARQAROR RIVOJLANISH MODELINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK- INSTITUTSIONAL ASOSLARI	227-233
<i>Nigmatova Nozimaxon</i> INGLIZ TILINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING XORIJIY AMALIYOTI VA PEDAGOGIK SAMARADORLIGI	234-237
<i>Юсупова Наргиза</i> АНАЛИЗ БИОМЕХАНИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ АТАКУЮЩИХ ДЕЙСТВИЙ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ТАЭКВОНДИСТОВ (WT)	238-241
<i>Abdullayeva Asila</i> O'ZBEKISTONNING SO'NGGI TARIXI VA FALSAFA FANINI O'QITISHDA DIDAKTIK UYG'UNLIK	242-247
<i>Ergasheva Nigora</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNING METODIK VAZIFALARI	248-251
<i>Alimova Mashxuraxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA TA'LIMI DARSLARIDA TABIIY MATERIALLARDAN BUYUMLAR TAYYORLASHDA KONSTRUKSIYALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	252-255
<i>G'ofurova Barnoxon</i> TALABALARNING KONSEPTUAL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA'LIMNING METODIK SHART-SHAROITLARI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	256-260
<i>Axmedov Yodgorbek</i> ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIK LITSEYLARI O'QUVCHILARINING MUSTAQIL O'QUV FAOLIYATIDA TINKERCAD PLATFORMASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	261-263

<i>Qozaqova Munajat</i> MUHANDISLIK VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANINI O'QITISHDA TALABALAR LOYIHALASH KO'NIKMASINI KO'RGAZMALILIK ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	264-267
<i>Парниева Айгуль</i> АКСИОЛОГИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ СОВРЕМЕННОГО СТУДЕНТА	268-271
<i>Nosirova Shoiraxon</i> INGLIZ TILIDA KASBIY MULOQOT XULQINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI	272-278
<i>Azizova Mohiniso, G'ulomova Sevara</i> MAKTAB DARSLARIDA RA'NODOSHLILAR OILASINI O'QITISHDA ZAMONAVIY INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH	279-281
<i>Jalilova Xolidaxon</i> METHODOLOGY FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF TEACHING ENGLISH USING WEBQUEST TECHNOLOGY	282-284
<i>Abduvaxobov Shohruhbek</i> MASOFADAN TA'LIM JARAYONIDA UCHRAYDIGAN AMALIY MASALALAR VA ULARNI BARTARAF ETISH BO'YICHA METODIK YONDASHUVLAR	285-287
<i>Аюпов Тимур</i> СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ В ВУЗАХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	288-290
<i>Tillayeva Nilufar</i> DIALOGIC PEDAGOGY IN ESL WRITING: THE ROLE OF SOCRATIC SEMINARS	291-294
<i>Sobirova Feruza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARIDA DARSNI REJALASHTIRISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	295-299
<i>Karimova Sadoqat</i> CONCEPTUAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES TO TEACHING ENGLISH TO PRESCHOOL CHILDREN IN A MONTESSORI EDUCATIONAL ENVIRONMENT	300-302
<i>Солохиддинова Фазилятхон</i> МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНЫХ УЧЕБНЫХ ДЕЙСТВИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ В АСПЕКТЕ РАЗВИТИЯ ГРАММАТИЧЕСКОГО ПОНЯТИЯ «ИМЯ СУЩЕСТВИТЕЛЬНОЕ»	303-306
<i>Sayidova Nilufar</i> ZAMONAVIY MUZEY EKSPOZITSİYALARIDA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING ILMIY - AMALIY AHAMIYATI	307-310
<i>Ne'matova Mahfuzaxon</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHISINING NUTQ FAOLIYATINI FAOL RIVOJLANTIRISHDA FE'L SO'Z TURKUMINING TUTGAN O'RNI	311-313

TIBBIYOT FANLARI

Sobirova Mavludaxon

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR314-316

Ахмаджонова Хуршидабону, Рустамова Шахиста

НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО ИЗУЧЕНИЮ НАСЛЕДСТВЕННАЯ

ПРЕДРАСПОЛОЖЕННОСТЬ ВИРУСАМИ ГЕПАТИТА С (HCV) И В (HBV) НА

МОЛЕКУЛЯРНОМ УРОВНЕ317-322

Xoshimov Muslimbek, Karimjonov Jaloliddin, Inomov Kamoliddin, Izatullayeva Mohlaroyim

O'ZBEKISTONDA NEYRODEGENERATIV KASALLIKLARNING TARQALISH SABABLARI VA

NEYRODEGENERATIV KASALLIKLAR RIVOJLANISHIDA ASTROSITLARDAGI REAKTIV

O'ZGARISHLAR323-326

Мамарова Шодила, Инатуллаева Рано, Сотиболдиева Умида, Кодиржанов Жавохир

ВИТАМИН D: МЕТАБОЛИЗМ, БИОЛОГИЧЕСКАЯ РОЛЬ, ДЕФИЦИТ И

ПРОФИЛАКТИКА327-336

PSIXOLOGIYA FANLARI

Ismoilov Temurbek

VERBAL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA MADANIY VA IJTIMOY

KONTEKSTNING ROLI337-342

TALABALARNING KONSEPTUAL FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA'LIMNING METODIK SHART-SHAROITLARI VA PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

G'ofurova Barnoxon Asadjon qizining

University of Business and Science katta o'qituvchisi, PhD

Email: gofurova343@gmail.com

Tel: +998916723453

Annotatsiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim jarayonida talabalarning konseptual fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik shart-sharoitlar va pedagogik imkoniyatlar ilmiy asoslanadi. Tadqiqotda konseptual fikrlashning mazmuni, kompetensiya sifatida shakllanish omillari hamda ta'lim jarayonini tashkil etishning metodik mexanizmlari tahlil qilinadi. Maqolada konseptual fikrlashni rivojlantirishda integrativ yondashuv, muammoli ta'lim, refleksiv faoliyat, loyihaviy o'qitish, interfaol hamda vizual-metodik vositalarning amaliy samaradorligi yoritiladi. Shuningdek, diagnostik baholash, kompetensiyaviy yondashuv va o'quv mazmunini konseptlar tizimi asosida strukturaviy tashkil etish talabaning analitik, modellashtiruvchi va ilmiy xulosalovchi fikrlash ko'nikmalarini yuksaltirishdagi muhim omillar sifatida ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: konseptual fikrlash, kompetensiya, metodik shart-sharoit, pedagogik imkoniyat, muammoli ta'lim, refleksiya, integratsiya, loyihaviy faoliyat.

METHODOLOGICAL CONDITIONS AND PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES OF HIGHER EDUCATION IN DEVELOPING STUDENTS' CONCEPTUAL THINKING

Gofurova Barnoxon Asadjon qizining

Senior Lecturer, University of Business and Science, PhD

Annotation This article scientifically substantiates the methodological conditions and pedagogical opportunities that serve to develop students' conceptual thinking in the process of higher education. The study analyzes the content of conceptual thinking, factors of its formation as a competency, and methodological mechanisms for organizing the educational process. The article highlights the practical effectiveness of an integrative approach, problem-based learning, reflective activity, project-based learning, interactive and visual-methodological tools in developing conceptual thinking. Also, diagnostic assessment, a competency-based approach, and the structural organization of educational content based on a system of concepts are indicated as important factors in improving the student's analytical, modeling, and scientific inferential thinking skills.

Keywords: conceptual thinking, competency, methodological conditions, pedagogical opportunities, problem-based learning, reflection, integration, project activities.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymif-y2026v2i2/n51>

Globalashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqamli texnologiyalar asosida ta'lim resurslarining kengayishi hamda zamonaviy mehnat bozorida yuqori intellektual salohiyatga ega mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojning ortib borishi oliy ta'lim tizimini sifat jihatidan yangilash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchisidan faqat nazariy bilimlar majmuasini egallash emas, balki ularni tahlil qilish, tizimlashtirish, tushunchalararo bog'liqlikni aniqlash, konseptual modellashtirish hamda murakkab vaziyatlarda ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish kabi yuqori darajadagi tafakkur kompetensiyalariga ega bo'lish talab etilmoqda. Shu jihatdan talabalarda konseptual fikrlashni

shakllantirish va rivojlantirish oliy ta'lim jarayonining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Konseptual fikrlash talabning bilimlarni alohida fakt va ma'lumotlar yig'indisi sifatida emas, balki ularning ichki mohiyati, sabab-oqibat munosabatlari hamda umumiy qonuniyatlar tizimi orqali anglash qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur fikrlash turi ayniqsa murakkab ilmiy tushunchalar va nazariy modellar bilan ishlashda muhim bo'lib, u talabning nazariy bilimni amaliy vaziyatlarga tatbiq etish, muammoni umumlashtirilgan konseptual darajada talqin qilish hamda yechimni modellashtirish kompetensiyasini shakllantiradi. Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy yondashuvida konseptlarning shakllanishi shaxsning muloqot va nutqiy faoliyati bilan bevosita bog'liq ekani ta'kidlanadi, bu esa ta'lim jarayonida talabning fikrlash amaliyotini faollashtirish zarurligini ko'rsatadi. Bruner esa bilimni "kashfiyot orqali o'zlashtirish" mexanizmi talabning intellektual mustaqilligini oshirishini qayd etib, konseptual fikrlashni rivojlantirishda faol o'qitish strategiyalarining ustuvorligini asoslaydi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim paradigmasida kompetensiyaviy yondashuv ustunlashib borayotganligi sababli konseptual fikrlashni rivojlantirish ta'lim mazmunini qayta tashkil etish, o'qitish metodlarini ilmiy-tadqiqiy va muammoli yondashuvlar bilan boyitish hamda refleksiv faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi ta'lim muhitini yaratishni taqozo etadi. Biggs va Tang tomonidan ilgari surilgan "konstruktiv moslashuv" (constructive alignment) nazariyasi ham o'quv maqsadlari, o'qitish metodlari va baholash mezonlari o'zaro uyg'un tashkil etilgandagina yuqori darajadagi kognitiv natijalarga erishish mumkinligini asoslaydi. Demak, konseptual fikrlashni rivojlantirish masalasi oliy ta'limda metodik shart-sharoitlar hamda pedagogik imkoniyatlarning tizimli ravishda loyihalashtirilishini talab qiluvchi muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

Ta'lim nazariyasi va metodikasida konseptual fikrlashni rivojlantirish muammosi kognitiv psixologiya, konstruktivistik yondashuv hamda kompetensiyaviy ta'lim konsepsiyasi doirasida keng talqin qilinadi. Kognitiv yondashuv vakillari fikrlashni shaxsning bilimni qayta ishlash, tashkil etish va strukturaviy shakllantirish jarayoni sifatida izohlaydi. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasida yangi bilimlarning o'zlashtirilishi shaxsning mavjud aqliy strukturasi bilan o'zaro moslashuvi orqali amalga oshishi ko'rsatiladi; bu esa talabning tushunchalararo aloqalarni ongli ravishda anglashiga xizmat qiladi.

Vygotskiy konseptlarning shakllanishini "yaqin rivojlanish zonasi" bilan bog'lab, ta'lim jarayonida talaba fikrlashini ijtimoiy hamkorlik va muloqot orqali rivojlantirish mumkinligini asoslaydi. Bruner esa ta'lim mazmunini spiral ko'rinishda tashkil etish g'oyasini ilgari surib, tushunchalarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirish orqali konseptual fikrlashni rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydi. Ausubelning "mazmunli o'zlashtirish" nazariyasida esa yangi bilimlar avvalgi bilimlar bilan mantiqiy integratsiyalashganda barqaror tushunchalar tizimi shakllanishi ilmiy jihatdan asoslangan. Shu bilan birga, Bloom va Anderson Krathwohl taksonomiyasi doirasida kognitiv natijalar darajalanib, tahlil, sintez, baholash va yaratish kabi yuqori aqliy operatsiyalar bilimni oddiy qayta aytishdan ko'ra murakkab tafakkur jarayonlarini talab qilishi ko'rsatiladi. Bu holat oliy ta'limda konseptual fikrlash kompetensiyasini shakllantirish uchun o'quv jarayonini muammoli vaziyatlar, integrativ o'quv topshiriqlari va refleksiv faoliyat orqali tashkil etish zarurligini bildiradi.

Hattie tomonidan olib borilgan meta-tahliliy tadqiqotlarda ta'lim natijadorligiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri sifatida o'qituvchi tomonidan beriladigan aniq

maqsadlar va samarali qayta aloqa mexanizmlari ajratib ko'rsatiladi. Marzano esa ta'lim samaradorligini oshirishda tahliliy fikrlash strategiyalarini ishlab chiqish, o'quv vaziyatini tushunchalar asosida tahlil qilish va natijani konseptual asosda umumlashtirish amaliyotlari muhimligini ta'kidlaydi. Demak, konseptual fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish ta'lim mazmuni, metodik ta'minot, baholash tizimi hamda pedagogik muhitning uyg'unligiga tayanadigan murakkab tizimli jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada konseptual fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish masalasini metodik jihatdan asoslashda nazariy-tahliliy yondashuv ustuvor bo'lib, u pedagogik va psixologik manbalar, zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim konsepsiyalari hamda konstruktivistik g'oyalarning ilmiy interpretatsiyasi asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil metodi orqali konseptual fikrlashga doir ilmiy qarashlar tizimlashtirildi, taqqoslash va umumlashtirish usullari asosida turli yondashuvlarning mazmuniy farqlari aniqlashtirildi. Shuningdek, pedagogik modellashtirish metodi yordamida talabalarda konseptual fikrlashni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik shart-sharoitlar tizimi konseptual model sifatida ishlab chiqildi. Diagnostik yondashuv esa kompetensiyaning shakllanishini baholashga imkon beruvchi mezon va ko'rsatkichlarni belgilash, refleksiv tahlil mexanizmlarini pedagogik jarayonga integratsiya qilish zaruratini ilmiy asoslashga xizmat qildi.

Konseptual fikrlash kompetensiyasi talabaning o'rganilayotgan bilimlarni mazmunan qayta ishlashi, tushunchalararo mantiqiy aloqalarni aniqlashi va umumlashtirilgan nazariy xulosalar chiqarishiga asoslangan intellektual faoliyatni ifodalaydi. Bu kompetensiya faqat bilimlar jamlanmasi bilan chegaralanmay, talabaning bilish jarayonida faol subyekt sifatida namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Shu nuqtai nazardan, konseptual fikrlash kompetensiyasining komponentlari quyidagicha izohlanadi:

Kognitiv komponent talabaning tayanch tushunchalar va nazariy bilimlar tizimiga egaligi bilan tavsiflanib, Ausubel ta'kidlaganidek, bilimlarning mazmunli o'zlashtirilishi avvalgi bilimlar bilan integratsiya jarayonida yuzaga keladi. Analitik-komparativ komponent tushunchalarni tahlil qilish, taqqoslash, tasniflash va umumlashtirish orqali ilmiy fikrlashning aniqligi va dalillanganligini kuchaytiradi. Model asosidagi tafakkur komponenti o'quv materialini sxema, jadval, konseptual xarita va algoritmlar asosida strukturaviy ifodalashni taqozo etadi; bu jarayon talabaning abstrakt tafakkurini rivojlantiradi. Refleksiv komponent talabaning o'z fikrlash jarayonini nazorat qilishi, xatolarni tahlil etishi va xulosalarni qayta ko'rib chiqishiga xizmat qiladi. Bandura nazariyasida ta'kidlangan o'zini boshqarish mexanizmlari aynan refleksiv faoliyat orqali mustahkamlanadi. Ijodiy komponent esa mavjud bilimlar asosida yangi yondashuvlar ishlab chiqish, muammoga alternativ yechim taklif etish va innovatsion fikrlarni ilgari surish imkonini yaratadi. Mazkur komponentlar o'zaro integratsiyalashgan holda shakllanganda talabaning konseptual fikrlashi barqaror, tizimli va ilmiy xulosalashga yo'naltirilgan ko'rinish kasb etadi.

Oliy ta'limda talabalarining konseptual fikrlashini rivojlantirish samaradorligi metodik jihatdan oldindan loyihalashtirilgan, maqsadli hamda diagnostik yondashuvga asoslangan shart-sharoitlar tizimiga bog'liqdir. Biggs va Tang konsepsiyasiga ko'ra, ta'lim maqsadlari, metodlar va baholash uyg'unlashgan taqdirdagina chuqur o'zlashtirish hamda yuqori darajadagi tafakkur natijalari yuzaga keladi. Shunga ko'ra, quyidagi metodik shart-sharoitlar ustuvor deb baholanadi:

Ta'lim mazmunini alohida fakt va ma'lumotlar ketma-ketligi emas, balki tayanch konseptlar tizimi asosida qurish talabani umumlashtirish va tizimli fikrlash ko'nikmalarini kuchaytiradi. Bunda tayanch tushunchalar aniqlanadi, ularning o'zaro munosabatlari konseptual xaritalar orqali vizuallashtiriladi hamda nazariya-amaliyot integratsiyasi ta'minlanadi. Bu yondashuv Brunerning "spiral ta'lim" g'oyasi bilan hamohang bo'lib, tushunchalarni bosqichma-bosqich chuqurlashtirishni nazarda tutadi.

Konseptual fikrlash, avvalo, muammoni anglash, savol qo'yish, gipoteza ilgari surish va ilmiy asoslash kabi aqliy operatsiyalar bilan rivojlanadi. Dewey ta'kidlaganidek, o'qitishning samaradorligi muammoli vaziyatlar yaratish va ularni hal etish jarayonini bosqichli tashkil etish bilan belgilanadi. Shu sababli muammoli savollar, keys-stadi, ilmiy munozaralar hamda dalillashga asoslangan vazifalar talabani faol fikrlashga yo'naltiradi.

Refleksiya konseptual fikrlashni mustahkamlovchi asosiy mexanizmlardan biri bo'lib, talabani fikrlash jarayonini ongli boshqarishiga xizmat qiladi. Metakognitiv nazorat "Men qanday fikrladim?" kabi tahliliy savollar, refleksiya kundaliklari, portfoliolar, shaffof baholash mezonlari va tizimli qayta aloqa orqali ta'minlanadi. Hattie tadqiqotlarida qayta aloqa (feedback) o'quv natijasiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida qayd etilgan bo'lib, bu refleksiv yondashuvning ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Loyihaviy faoliyat talabani bilimlarni amaliy muammo bilan bog'lash, rejalashtirish, resurslarni baholash, natijani taqdim etish va tahlil qilish kompetensiyalarini kompleks rivojlantiradi. Bu jarayon talabani konseptual modellashtirish ko'nikmalarini faollashtirib, muammoni umumlashtirilgan darajada talqin qilish va yechim ishlab chiqishga tayyorlaydi.

Marzano ta'lim jarayonida fikrlash strategiyalarini rivojlantirish, tahliliy topshiriqlardan foydalanish hamda vizual organayzerlar yordamida bilimni strukturaviy tashkil etish samaradorligini alohida ta'kidlaydi. Shu sababli INSERT, klaster, fishbone, debat, konseptual xarita (mind map) hamda grafik organayzerlar talabani konseptlararo munosabatlarni ko'ra olishiga va bilimlarni tizimlashtirishga yordam beradi.

Konseptual fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda metodik shart-sharoitlar bilan bir qatorda oliy ta'lim muhitining pedagogik imkoniyatlari ham muhim rol o'ynaydi. Jumladan, raqamli platformalar (LMS), elektron resurslar va masofaviy ta'lim vositalari talabani mustaqil izlanish faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, kreativ ta'lim muhiti, hamkorlikda o'qitish (collaborative learning), o'qituvchining fasilitatorlik roli hamda kompetensiyaviy baholash tizimi talabani fikrlash faoliyatini faollashtiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik imkoniyatlar metodik shart-sharoitlar bilan uyg'unlashganida ta'lim natijadorligi ortib, konseptual fikrlash kompetensiyasi bosqichma-bosqich shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta'lim jarayonida talabalarning konseptual fikrlashini rivojlantirish ta'limni metodik jihatdan puxta loyihalashni hamda maqsadli pedagogik shart-sharoitlarni yaratishni talab etadi. O'quv mazmunini tayanch konseptlar tizimi asosida strukturaviy tashkil etish, muammoli ta'lim metodlarini qo'llash, refleksiv muhitni shakllantirish, loyihaviy-tadqiqot topshiriqlar tizimini joriy etish va interfaol-vizual metodik vositalardan samarali foydalanish konseptual fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning ustuvor shartlari sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuvlar talabalarda ilmiy tahlil, umumlashtirish, modellashtirish hamda mustaqil va asoslangan qaror qabul qilish

kompetensiyalarini kuchaytirib, oliy ta'limning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. (ZPD va rivojlanish diagnostikasi masalalari) PDF: 23–24-b.
2. Dewey, J. How We Think. Boston: D. C. Heath & Co., 1910. (Fikrni o'stirish va "to'liq fikrlash akti" tahlili) 68–79-b.
3. Biggs, J., & Tang, C. Teaching for Quality Learning at University. (Constructive alignment, chuqur o'qish, natijaga yo'naltirilgan dizayn) 74–75-b; 81–84-b.
4. Hattie, J., & Clarke, S. Visible Learning: Feedback. (Ta'limda qayta aloqa va "effect size" izohi) PDF: 11–13-b.
5. Marzano, R. J., Pickering, D. J., & Pollock, J. E. Classroom Instruction That Works: Research-Based Strategies for Increasing Student Achievement. (Nonlinguistic representations, grafik organayzerlar va konseptual strukturalash) 28–34-b.
6. Takaya, K. "Jerome Bruner's Theory of Education: From Early Bruner to Later Bruner." Interchange, 39(1), 1–19, 2008. (Kashfiyot orqali o'zlashtirish, "structure of discipline", madaniyat va ma'no yasash) 1–19-b.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, yanvar

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 2-son (yanvar, 2026-yil). – 343 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 22-yanvar

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.